

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ADABIY NUTQ
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

Sodiqova Dilafruz

*Buxoro davlat pedagogika instituti,
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” fakulteti,
1-2BT-21 guruh talabasi*

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining adabiy nutq madaniyatini shakllantirish — bu nafaqat til o‘rgatish, balki bolani fikrlash, to‘g‘ri, ravon va ma’naviy boy so‘zlashga o‘rgatish demakdir. Mazkur maqolada o‘quvchilarda adabiy nutqni rivojlantirishning samarali usullari, o‘qituvchining roli, badiiy adabiyot, o‘yin metodlari va darsda interaktiv yondashuvlar orqali erishiladigan yutuqlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy nutq, boshlang‘ich sinf, metodika, o‘yin usullari, nutq madaniyati, sinonim, omonim.

KIRISH

Ma’lumki, boshlang‘ich sinfga o‘quvchilar 7 yoshdan qabul qilinadi va ularga ilk bilimlar — savod o‘rgatish, yozuv va o‘qish mashg‘ulotlari birgalikda o‘tiladi. Bu fanlar o‘quvchilarning keyingi bilim olish jarayoniga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu bosqichda o‘quvchining nutqini, aniqrog‘i — adabiy nutq madaniyatini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki nutq inson tafakkurining ifodasidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA TAHLIL

Adabiy nutq — bu umumxalq tomonidan tan olingan, normativ, estetik va ravon bo‘lgan nutq shaklidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maktabga kelgan paytda ularning nutqida dialektal so‘zlar, sheva elementlari ustunlik qiladi. Bu holat o‘quvchining til madaniyatini rivojlantirishda muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Adabiy nutqni shakllantirishda quyidagi metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi:

1. O‘qituvchining adabiy nutqda so‘zlashi.
2. Badiiy asarlardan foydalanish.
3. O‘yin metodlari.
4. Sinonim va omonimlardan foydalanish.
5. Rebus va krossvordlar.
6. Uyga topshiriq sifatida adabiy mashqlar.

E’tiborga olish kerak bo‘lgan jihatlar:

– O‘qituvchining o‘zi parazit so‘zlardan saqlanishi lozim.

– Bir dars davomida bir necha til aralashmasi (masalan, ruscha yoki inglizcha so‘zlar) noo‘rin ishlatilsa, o‘quvchi adabiy nutqni to‘liq anglay olmaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining adabiy nutqini rivojlantirish bu — faqat birgina til o‘rganish emas, balki shaxsning ma’naviy va tafakkuriy shakllanishi demakdir. Nutq madaniyatiga ega bo‘lgan bola o‘z fikrini aniq, lo‘nda, go‘zal va to‘g‘ri bayon qila oladi.

Buyuk mutafakkirlar — Abu Nasr Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib kabi allomalar asarlarida nutqni inson kamolotining eng muhim belgisi sifatida ko‘rsatganlar. Shunday ekan, o‘quvchining nutqini rivojlantirishda nafaqat o‘qituvchi, balki ota-onalar ham faol ishtirok etishlari lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2006.
2. G‘ulomov N. Nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Omonov Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida til va nutqni rivojlantirish. – Samarqand, 2020.
4. Karimova N. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Buxoro, 2022.
5. Zunnunova M. Badiiy matn asosida nutqni shakllantirish. – Andijon, 2021.